

# TTPU maktablar bilan kelishuv memorandumini imzoladi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev raisligida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasiga bag'ishlangan videoselektorda belgilab o'tilgan vazifalar ijrosiga hamda Oliy ta'lim muassasalariga o'rta ta'lim maktablarini birlashtirish va ularning ishlash jarayonlarining samaradorligini oshirish bo'yicha 2020 yil 22 noyabr kuni Bosh Vazir o'rinbosari B. A. Musaev rahbarligida bo'lib o'tgan Ishchi guruh majlisi 3-son Bayoniga muvofiq Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti unga birlashtirilgan Toshkent shahri Uchtepa tumanidagi 312, 78, 14, 203, 129-sonli o'rta maktablari bilan kelishuv memorandumini imzoladi, hamda Olmazor tumanidagi 196-sonli o'rta ta'lim maktabi bilan o'zaro hamkorlik konsepsiyasi ishlab chiqildi.

□Endilikda TTPU tajribasi asosida ushbu maktablar faoliyati quyidagi amaliy ishlar yordamida takomillashtiriladi:

- Universitet professor-o'qituvchilarining salohiyati va tajribalaridan foydalangan xolda maktab fan o'qituvchilariga ilg'or o'qitish uslublarini o'rgatish;
- Ularning "Ingliz tili" ko'nikmalarini va malakalarini oshirish uchun "Master-klass" formatida leksiylar, seminarlar tashkil etish;
- Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni hamkorlikda o'tkazish;
- Birgalikda turli hil tanlovlar va fan olimpiadalarini o'tkazish;
- Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yish.